

KARSHI
STATE
UNIVERSITY



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI
ZOOLOGIYA INSTITUTI

**HAYVONOT OLAMINI O'RGANISHNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI
2024 yil 7-8 noyabr

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ
ИЗУЧЕНИЯ ЖИВОТНОГО МИРА**
МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
7-8 ноября 2024 года

**ACTUAL PROBLEMS AND PROSPECTS OF THE STUDY
OF THE FAUNA**
MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
7-8 november 2024 year



QARSHI -2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ZOOLOGIYA INSTITUTI**

O'ZBEKISTON ZOOLOGLAR JAMIYATI

**HAYVONOT OLAMINI O'RGANISHNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

2024 yil 7-8 noyabr

Qarshi-2024

aborigenlar *Trigona*, *Melipona* va boshqa bir qator meliponin koloniyalaridan foydalanganlar. Hozirgi vaqtda *Trigona carbonaria*, *T. limao*, *Melipona beechii*, *M. trinitatis* va boshqa ba'zi Meliponinaelarning naslchilik usullari ishlab chiqilgan (Nogueira-Neto, 1953; Bennett, 1964, 1965; Ordetx, Perez, 1966; Kent, 1984; Sommeijer, Bootsma, 1987; Heard, 1988; Velthuis, 1990; Acereto et al., 1991; Crane, 1992, va boshqalar). Biroq, Meliponin asalarichilik hali keng tarqalmagan.

Bombus avlodi tomonidan qizil yoncha o'simligi changlanishiga bo'lgan ehtiyoj va ularning tabiatdagi yetishmasligi uzoq vaqtdan beri bu hasharotlarni sun'iy ravishda ko'paytirish zarurligini anglashga olib keldi. Oilalarni yog'och uyalarga joylashtirish orqali Bombus avlodini ko'paytirishga urinishlar Angliyada Huberning ishi bilan boshlandi (Huber, 1802). Faqat 19-asrning oxiriga kelib Hoffer (Hoffer, 1882) urg'ochi Bombus avlodi sun'iy sharoitda uya yaratishiga erishdi. Ushbu usul Sladenga (1912) va Linxartga (Linxart) bir qator ko'p yillik tajribalar orqali urg'ochi asalarilar tomonidan rivojlangan oilalarni yaratishga imkon berdi. Ushbu mualliflarning klassik asarlari hozirgi kungacha ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan qo'llaniladigan sun'iy Bombus avlodi naslchilik asoslarini yaratdi (Plath, 1922, 1923, 1934; Frison, 1928; Pedersen, Bohart, 1950; Postner, 1951; Grinfeld, 1954; Voveykov, 1954; Fye, Medler, 1954a; Stein, 1956; Eugene, 1957; Medler, 1958b, 1962; Hobbs va boshq., 1960, 1962; Holm, 1960, 1966; Zápletal, 1961; Malyshev, 1963; Berthelem, 1966; Plowright, Jay, 1966; Palmer, 1968; Horovitz, Thorp, 1970; Wójtowski, 1971; Plowright, Stephen, 1972; Biliński, 1973, 1976, 1977; Alford, 1975 Yil; Pomeroy, Plowright, 1980; Hagen, 1981; Grebennikov, 1982, 1984; Macfarlane va boshq., 1984; Pouvreau, 1984; Duchateau, 1985; Prss-Jones, Corbet, 1987 va boshqalar). Shu bilan birga, Bombus avlodi uchun juda ko'p turli xil uyalar dizayni taklif qilingan, ammo umuman olganda, Bombus avlodini sun'iy ravishda ko'paytirish ko'p vaqt talab qiladi va ushbu ish ixlosmandlari tomonidan bevosita ishtirok etishni talab qildi [2].

Entomofag sifatida qazuvchi arilar tabiatda muhim rol o'ynaydi, chunki ko'plab hasharotlar (va o'rgimchaklar) sonini nazorat qilishda ishtirok etadi hamda qishloq va o'rmon xo'jaligiga zarar keltiradigan va veteranariya va tibbiyot sohasiga zarar yetkazuvchi hasharotlar sonini sezilarli darajada kamaytiradi. Bundan tashqari qazuvchi arilar gulli o'simliklar changlanishida ham kam bo'lmagan ahamiyatga ega. Bu arilarning faqatgina bir necha turlari foydali hasharotlar va o'rgimchaklarni (changlantiruvchi va entomofaglar) o'ldirib zarar keltiradi.

Ular asosan, tayyor tabiiy bo'shliqlarda, bir yoki bir nechta yerga qazilgan teshiklarda uya quradilar yoki ho'l loydan uyalar yasaydilar. O'ljasi - kapalak qurtlari, to'g'ri qanotlilar va o'rgimchaklar hisoblanadi. Ularni nerv bog'larida bir yoki bir nechta chaqish bilan falaj qilib, lichinkalar uchun oziq-ovqat sifatida uyaga joylashtiradi.

Tog' mintaqasi faunasi oxirgi vaqtlarda ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini tortmoqda. Gap shundaki, tog'lar bir tomondan intensiv tur hosil bo'lish maydoni bo'lsa, boshqa tomondan ko'plab reliktlar va unikal endemiklar saqlanishi uchun refugium bo'lib hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, tog' mintaqasi bioxilma-xillikni saqlashdagi muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Bembix F. turkumiga mansub qazuvchi arilar qoramollarga, otlarga va boshqa uy hayvonlariga hujum qiluvchi va chorvachilikka sezilarli zarar yetkazuvchi so'nalarning faol qiruvchilari sifatida tanilgan. Bembixslarning biologiyasi va ekologiyasini o'rganish bu foydali hasharotlarni amaliy foydalanish yo'llarini ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga ega [3].

Xulosa qilib aytgancha, asalarisimonlarning ahamiyatini o'rganish ulardan qishloq xo'jaligida ko'proq foydalanish imkonini beradi. Ba'zi o'simliklar asalarisimonlarning ayrim turlari bilangina changlanadi. Shu turdagi asalarisimonlarning kamayishi va yo'q bo'lib ketishi o'simliklarning ham populyatsiyasiga ta'sir qiladi. Asalarilar inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Ular hosildorlikni oshiradi va shu bilan ekologiya hamda iqtisodiyot uchun muhimdir. Afsuski, asalarisimonlar soni kamayib bormoqda. Bu odamlarning kundalik faoliyati bilan bog'liq sanaladi: ularning yashash muhitini yo'q qilishi, kimyoviy o'g'itlardan foydalanish va iqlimning o'zgarishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Radchenko V.G., Pesenko Yu.A. Biology of bees (Hymenoptera, Apoidea). Sank-Peterburg: Russian Academy of Sciences Zoological Institute, 1994. – 46 b.

2.Левченко Т.В. Фауна и экология пчел (Hymenoptera:Apoidea) Московской области // Автореферат, Москва 2010. с.

3.Казенас В.Л. (1998). «Роящие осы (Hymenoptera, Sphecidae). Выпуск Общая характеристика семейства. Подсемейства Ampulicinae, Sphecinae (Фауна Казахстана. Перепончатокрылые) - Алматы- 1998. — С.1-283.

UDK:594.591.9.

QORADARYO GIDROBIONTLARI FAUNASI VA EKOLOGIYASI

Bolotov I. N.¹, Izzatullayev Z.I.², Boymurodov X.T.³, Egamqulov A. N.³, Aliyev B. X.², Mirzamurodov O.X.²

¹Rossiya Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi. Akademik N.P. Laverov nomidagi Arktikani kompleks o'rganish federal izlanuvchi markazi Ural filiali bo'limi. Rossiya YE.m.: inepras@yandeex.ru

²Biologiya fanlari doktori, professor. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti. O'zbekistan. YE.mail: zizzat@yandedex.ru

³Biologiya fanlari doktori, professor. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti. boymurodov1971@mail.ru.

Annotatsion. The distribution of 14 species of hydrabionts belonging to the families Unionidae, Corbiculidae, Lymnaeidae, Physidae, Planorbidae, and Hirudinidae, Actacidae was studied in the Talig'ulon region of Karadarya. We found out that 9 hydrabionts are distributed in the water ecosystems of the Narpai district of Karadarya, with a low number of hydrabionts compared to the higher part of the species composition.

Hozirgi vaqtda dunyo suv ekotizimlarida tarqalgan gidrobiontlarni inventarizatsiyalash, istiqbolli turlarini aniqlash va ularni ishlab chiqarishga joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Gidrobiontlar populyatsiyalarining holati va ularning yashovchanligi to'g'ridan-to'g'ri muhit omillarining o'zgaruvchanligiga bog'liqdir [1,3,5]. Bugungi kunda Qoradaryo gidrobiontlar faunasi va ekologiyasini o'rganish va taxlil qilish dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi.

Gidrobiontlarni yig'ishda Z.Izzatullayev, X.T. Boymurodov uslublari [2,4], aniqlashda Z.I.Izzatullayev, X.T.Boymurodovlarning "Zarafshon daryosi havzasi ikki pallali mollyuskalari", Z.I.Izzatullayevning «O'rta Osiyo va unga yondosh maydonlarning suv ekosistemalari mollyuskalari faunasi» deb nomlangan ishlaridan foydalanildi. [1,2]

Qoradaryo – Zarafshon daryosining irmog'i bo'lib, uzunligi 111 km, suv o'tkazish hajmi 800 m³/s. Qoradaryo Zarafshon daryosidan suv olganligi sababli unda Zarafshon daryosida tarqalgan gidrobiontlar turlari tarqalganligini ko'rish mumkin.

Daryoning ikki joyida: Talig'ulon va Narpay xududlari suv tiplarida doimiy kuzatishlar olib bordik .

Talig'ulon hududi (koordinatalari N 39.69391310586123, E 67.05110549926759) suvlarida Unionidae, Corbiculidae, Lymnaeidae, Physidae, Planorbidae, Actacidae ba Hirudinidae oilalariga mansub bo'lgan 14 tur gidrobiontlarning tarqalganligini aniqladik. Bulardan ikki pallali mollyuskalarning 5 turi, qorinoyoqli mollyuskalarning 8 turi va zuluklarning 1 turi tarqalgan. Talig'ulon xududi botqoqlashgan, suv sekin oqadigan qismlarida Unionidae oilasidan: *Sinanodonta gibba* (1,5) (1m²) *S. orbicularis* (1,1) ba *S. puerorum* (1,5) tadan tarqalgan joylarni aniqladik. Bu xudud suv tiplarida O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan *Colletopterum bactrianum*, *C. cyreum sogdianum*, *C. kokandicum*, *Corbicula cor*, *C. fluminalis* va *C. purpurea* lar uchramadi. Daryo suvi o'ziga xos qator kimyoviy va biologik xossalarga ega bo'lib, gidrobiontlarning tuzilishi va ularning hayot faoliyatini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Suv gidrobiontlar yashash muhiti bo'lishi bilan birga organizmlarda bo'lib o'tadigan turli biokimyoviy reaksiyalar va

jarayonlarda aktiv katnashadi.

Qoradaryoning Talig'ulon xududi suv ekotizimlariga Samarqand shaxridan oqib chiqayotgan kanallar suvlari qo'yiladi. Bu suvlarning ifloslanish darajasi yuqori. Ushbu xududda ifloslangan suvlarda yashashga moslashgan *Corbiculina tibetensis* (1,4) va *C. ferghanensis* (1,3) ni tarqalganligini aniqladik. Daryo sohili kanallarida qorinoyoqli suv mollyuskalaridan *Lymnaea thiessea* (1,3) *L. oblonga* (0,8) *L. auricularia* (1,2,) *Costatella acuta* (1,5) *Planorbis planorbis* (1,1) *P. tangitarensis* (0,9), *Anisus ladacensis* (1,5) tarqalgan biotoplarning mavjudligini aniqladik. Toshloq biatoplarda Hirudinidae oilasidan *Haemopsis*, *Sanguisuga* (0,9) tadan tarqalgan.

Qoradaryoning Narpay tumani (koordinatalari N 40.009340851001646 E 65.95204353332521) qismi suv tiplarida gidrobiontlar tur tarkibi yuqori qismiga nisbatan kam, jami bo'lib 14 ta gidrobiontlar tarqalganligini aniqladik. Ikki pallali mollyuskalarning 4 turi, qorinoyoqli mollyuskalarning 4 turi, qisqichbaqalarning 1 turi tarqalgan.

Narpay tumani xududidagi Totken va Xatirchi xududlari suv ekotizimlarida ikki pallali mollyuskalardan *Sinanodonta gibba* (1,5,) *S. orbicularis* (1,2 tadan) tarqalgan. Suv tiplarida *Sinanodonta puerorum*, *Colletopterum bactrianum*, *C. cyreum sogdianum*, *C. ponderosum volgense*, *Corbicula cor*, *C. fluminalis*, *C. purpurea* lar tarqalmagan. Bu turlarning uchramasligiga sabab, suv sathining o'zgarib turishi va suv ifloslanishi o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Suv tiplarining qumloq va toshloq biotoplarida *Corbiculina* urug'idan *Corbiculina tibetensis* (1,0) va *C. ferghanensis* (1,1) tarqalganligini aniqladik. Ariqlar, kanallar va xovuzlarda qorinoyoqli mollyuskalardan *Lymnaea thiessea* (1,0,) *L. bactriana* (1,1,) *Physella* (*Costatella acuta*) (1,1,) *Planorbis tangitarensis* (1,2) tarqalgan biatoplar bor. Xovuz suvlarida *Pontastacus leptodactylus* (1,1) tarqalgan. Daryoning ushbu qismi suvlarida Zarafshon daryosining boshqa qismlarida uchraydigan *Lymnaea stagnalis*, *L. truncatula*, *L. oblonga*, *L. subangulata*, *L. auricularia*, *Planorbis planorbis*, *Anisus ladacensis* lar uchramadi.

Qoradaryo biotoplarida tarqalgan gidrabiontlarni yashash joyiga qarab ekologik guruhlarini taxlil qilganimizda peloreofillarning 6 turi 38 %, reofillarning 1 turi 6 %, ni , fitofillarning 8 turi 50 % va fitoreofillarning 1 turi 6 % ni tashkil etishi aniqlandi. Daryo sohili suv ekotizimlarida oqar suvlar loylarida yashovchi peloreofil va o'simliklarda yashovchi fitofil ekologik guruhlari ustunlik qiladi. Sababi, daryoning ushbu qismida oqar suvli joylarida loylar va suv o'simliklari keng tarqalgan.

Qoradaryoning Talig'ulon xududi suvlarida Unionidae, Corbiculidae, Lymnaeidae, Physidae, Planorbidae, Actacidae va Hirudinidae oilalariga mansub bo'lgan 14 tur gidrobiontlarning tarqalganligi aniqlangan. Bulardan: ikki pallali mollyuskalarning 5 turi, qorinoyoqlilarninig 8 turi qisqichbaqa va zuluklarning 1 tadan turi va Qoradaryoning Narpay tumani qismi suv tiplarida gidrobiontlarning tur tarkibi yuqori qismiga nisbatan kam. Jami bo'lib bu

MUNDARIJA

Kirish so'zi	7
I SHO'BA. UMURTQASIZ HAYVONLAR FAUNASINI O'RGANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	9
Яковлев Р.В., Рахимов М.Р., Халимов Ф.З., Найденов А.Е. ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗУЧЕНИЯ ЧЕШУЕКРЫЛЫХ (LEPIDOPTERA) ФАУНЫ УЗБЕКИСТАНА: ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЙ АСПЕКТ	9
Дьячков Ю.В. ОБ АНТРОПОХОРОЙ ФАУНЕ ГУБОНОГИХ МНОГОНОЖЕК (CHILOPODA) СРЕДНЕЙ АЗИИ	11
Павлова П. Д. ОБЗОР ВЫСШИХ ЧЕШУЕКРЫЛЫХ (LEPIDOPTERA) ЧИНЕТИНСКОГО ЗАКАЗНИКА (АЛТАЙСКИЙ КРАЙ)	13
Рудой В. В. ФАУНИСТИЧЕСКОЕ БОГАТСТВО ИНФРАОТРЯДА РЕНТАТОМОМОРФА (HETEROPTERA) РУССКОГО АЛТАЯ	15
Бобоназаров Г.Я. ИЗУЧЕНИЕ МЕТАМОРФОЗА КЛЕЩЕЙ ЧЕСОТОЧНОГО ЗУДНЯ SARCOPTES SCABIEI КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ	18
Халимов Ф. З., Зокирова Д.Ф. ФАУНА ЖУЖЕЛИЦ ГИССАРСКОГО ЗАПОВЕДНИКА	21
Arabova N.Z., Buriyeva X.P., Sattorova M.A. Komilova D. QASHQADARYO VILOYATI KOKSINELLIDLARINING SISTEMATIK TAHLILI	25
Bektashev SH.M., Ochilov X.B. QASHQADARYO VILOYATIDA TARQALGAN MOLLYUSKALAR FAUNASI	28
Buriyeva X.P., Arabova N.Z., Xidirova M.X. QARSHI SHAHRI SHAROITIDA TARQALGAN VESPIDAE OILASI VAKILLARINING EKOLOGIYASI VA BIOLOGIYASI	31
Buriyeva X.P., Arabova N.Z., Yoqubov S., Sattorova M.A. PHENOLOGY AND LIFE CYCLES OF SOME COCCINELLID SPECIES	33
Davronov B.O., Orziyeva Y.M., Abdullayeva O. QASHQADARYO VILOYATI HUDUDIDA UCHRAYDIGAN HYGROMIIDAE OILASI (Tryon, 1866) FAUNASINING O'RGANILGANLIK HOLATI	36
Davronov B.O., Xoliqulova G.A., Maxmarajabov D. QURUQLIK QORINOYOQLI MOLLYUSKALARINING SHAHAR BIOTOPLARI BO'YICHA TARQALISHI	39
Duysengaliev E.S., Juginisov T.I., Isaeva S.T. QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI CHO'L HUDUDLARI UZUN SHOXLI QO'NG'IZLARINING <i>Neoplocaederus scapularis</i> (COLEOPTERA: CERAMBYCIDAE) BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI	42
Elmurodova M.V. ASALARISIMONLARNING (HYMENOPTERA:APOIDEA) TABIATDAGI VA INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI VA EKOLOGIK ROLI	47

Bolotov I. N., Izzatullayev Z., Boymurodov X.T., Egamqulov A. N. Aliyev B. X. QORADARYO GIDROBIONTLARI FAUNASI VA EKOLOGIYASI.....	50
Izzatullayev Z., Pozilov A. TOJIKISTON QURUQLIK MOLLYUSKALARI (GASTROPODA, PULMONATA) NI O'RGANISH NATIJALARI VA KELGUSIDAGI VAZIFALAR.....	53
Juginisov T.I., Alimbetov A.A., Asemenova D.Y., Ro'zimatova F.SH., Ubaydullayeva E.A. JANUBIY OROLBO'YI KSILOFAG-HASHAROTLARI DOMINANT TURKUMLARINING (INSECTA:COLEOPTERA, ISOPTERA, LEPIDOPTERA, HYMENOPTERA, DIPTERA) BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI	57
Jumanov M.A, Isayev R.T, Ilyasova G.J, Allashova M.T. AQPETKEY ARXEPELAGI TUPROQ MAKROFAUNASINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI	59
Jumanov M.A., Isayev R.T., Alimbetov A.A., Aseminova D.Y., Tajetdinov M.M., Ubaydullayeva E.A., Ilyasova G.J., Matmurotov M.A. AQPETKEY ARXIPELAGI TUPROQ MAKROFAUNASI DOMINANT TURLARINING BIOEKOLOGIYASI.....	61
Karimkulov A.T., Nabijonova O.G'. QURUQLIK MOLLYUSKALARINING EKOLOGIK GURUHLARI SHAKLLANISHIDA TASHQI MUHIT OMILLARINING O'RNI	63
Kuchboyev A.E., Solijonov X.X., Izzatullayev Z., Umarov F.U., Usmonov S.X., Izatullayev X.I. O'ZBEKISTONDA HELOBDELLA BLANCHARD, 1896 URUG'IGA MANSUB ZULUKLARNING MOLEKUYLAR IDENTIFIKATSIYASI.....	66
Musaev D.M., Mirzaeva G.S., Nazarov Sh.N. QUYI AMUDARYO DAVLAT BIOSFERA REZERVATI QANDALALARI (HETEROPTERA) TUR XILMA-XILLIGI	70
Norkobilova Z.B., Burieva X.P., Arabova N.Z. THE IMPORTANCE OF DRAGONFLIES IN ALHAGI PSEUDALHAGI (M. BIEB.) DESV. EX WANGERIN PEST ELIMINATION	75
Norqobilova Z.B. QASHQDARYO HUDUDIDA TARQALGAN ORTHETRUM SABINA (DRURY 1770), NINACHI TURINI TAKSONOMIYASI VA MORFOBIOLOGIYASI.....	78
Ochilova Ch.N. QURUQLIK QORINOYOQLI MOLLYUSKALARI RADULASINING TUZILISHI VA TIPLARI	81
Omonova N.R. UY SHAROITIDA TOVUQLAR ARGAS PERSICUS KANALARIGA QARSHI KURASH USULLARI	85
Orziyeva Y.M., Pazilov A.P., Muxammadiyev Z. TAXTAQORACHA DOVONI MALAKAFAUNASI.....	88
Orziyeva Y.M. ZARAFSHON TOG' TIZMASI JANUBIY YON BAG'RIDA TARQALGAN QORINOYOQLI MOLLYUSKA(GASTROPODA)LARNING ZOOGEOGRAFIK TAVSIFI.....	90